



MALAKA OSHIRISH KURSI TINGLOVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Beginqulov Zarif Axmadovich,

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrasining mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi (DSc).*



Annotatsiya: mazkur maqolada Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallarida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, malaka oshirishga kelgan tinglovchilarda kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish haqida so'z boradi.

Kalit so'z va iboralar: kitob, malaka, tarbiya, kitobxonlik, raqamlashtirish, kitob taqdimoti.

Аннотация: в данной статье пойдет речь о широкой пропаганде чтения в Институте переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту, организации системной работы по дальнейшему развитию культуры чтения у слушателей, которые приходят на повышение квалификации.

Ключевые слова и фразы: книга, квалификация, воспитание, чтение, оцифровка, презентация книги.

Kitob azaldan insonning dunyoqarashini ijobiy tomonga o'zgartiruvchi, uning ma'naviy saviyasini yuksaltirish vositasi bo'lib kegan. Ilm-fan, jamiyatning barcha sohalaridagi yutuqlar, mamlakat taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi, shuningdek kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir. Kitobsiz yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydigan isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Kitob o'quvchida dunyoni anglab olishda ko'mak berish bilan bir qatorda uning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ijobiy xarakterni tarkib toptiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo'llarini o'rgatadi. Bu xislatlarni egallab olgan har bir o'quvchi yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib kamolga yetadi.

Zero, kitob avlodlar zanjirini mustahkamlovchi ma'naviy merosdir. U inson ruhiga ta'sir etib, ularni ma'naviy-axloqiy kamolotga yetaklaydi, hissiyotiga ta'sir etadi va bilim berish bilan birga o'quvchiga zavq bag'ishlaydi hamda aqlni charxlab, uni tarbiyalaydi [4, 38-b].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda "2020—2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-sonli qaroriga asosan "2020—2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi" qabul qilindi. Jumladan, quyidagilar mazkur dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

... respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;



kitob yetkazib beruvchilarni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxona markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to'ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, kitoblarni raqamlashtirish va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish;

aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish [1].

So'nggi yillarda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallarida ham professor-o'qituvchilar va tinglovchilar orasida kitobxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, institutning Samarqand filialida mazkur yo'nalishda qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Samarqand filiali ma'muriyati tashabbusi bilan tinglovchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni yuksak milliy va jahon adabiyotlarini mutolaa qilishga yanada qiziqtirish, e'tiborini jalb qilish, ularda kitobxonlik madaniyatini oshirish, kitobxonlikni omallashtirish hamda turli shakl va vositalar bilan kitobni targ'ib qilish maqsadida A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi bilan 2023-yildan boshlab hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali hamda A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi o'rtasida 2023-2025-yillarga mo'ljallangan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi hamkorlik bo'yicha imzolangan shartnomada ikkala tomon ham bir qator vazifalarni o'z zim-malariga olgan bo'lib, unda jumladan, Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan Samarqand filiali professor-o'qituvchilarini kerakli adabiyotlar bilan ta'minlashga ko'maklashish, respublikamizda e'lon qilingan muhim va unutilmas sanalarni targ'ib etish maqsadida tashkillanadigan anjuman va tadbirlarni hamkorlikda tashkil etish va o'tkazishga, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali axborot-kutubxona markazi tashabbusi bilan uyushtiriladigan tinglovchilarni kitob mutolaasiga yanada ko'proq jalb etishga qaratilgan turli mavzulardagi ko'rik-tanlovlar, shou kechalar, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda professor-o'qituvchilar, tinglovchilar, mahalla aholisining ishtirokini ta'minlab berishga mas'ul [2, 26-b] ekanligi qayd etilgan.

Imzolangan hamkorlik shartnomasiga muvofiq A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi bilan qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mazkur muassasaning yig'ma elektron katalog sektori hamda axborot-kutubxona fondlarini jamlash xizmati mutaxassislari Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filialiga tashrif buyurib, filial axborot-resurs markazida kutubxona fondini to'g'ri joylashtirish, kitobxon formuliyalarini yuritish bo'yicha tavsiyalar berib kelmoqdalar.

Bundan tashqari har chorakda "Kitob – hayotni yaratuvchi murabbiydir" nomli yangi adabiyotlar targ'iboti tashkil etiladi. So'nggi bor A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan Javlon Jovliyev qalamiga mansub "Qo'rqma" romaniga bag'ishlangan booktuber namoyish etildi va viloyat axborot-kutubxona fondidagi eng qiziqarli va mazmunan boy bo'lgan adabiyotlar haqida ma'lumotlar berildi.

Kelajakda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malaka-



sini oshirish instituti Samarqand filiali hamda A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi bilan birgalikda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda ilmiy ishlar natijadorligini ta‘minlash yo‘nalishida ham hamkorlik qilish rejalashtirilgan.

O‘tgan 2024-yilda Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali axborot-resurs markazi mukammal ta‘mirlanib, zamonaviy raqamli kutubxonaga aylantirilgani malaka oshirish kursiga kelgan barcha tinglovchilarni hamda filial jamoasini xushnud etdi. Axborot-resurs markazi xizmatidan professor-o‘qituvchilar hamda tinglovchilarning kutubxona va axborot-bibliografik xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish orqali tahsil olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa, malaka oshirishga kelgan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar axborot-resurs markazida yaratilgan zamon talablari darajasidagi shart-sharoitlardan bevosita foydalangan holda, uning o‘zida mustaqil bilim olish, o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilash va chuqurlashtirish orqali boshqa tinglovchilar bilan o‘rtoqlashish, ijodkorlikka intilishga harakat qilmoqdalar.

Bunfan tashqari, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallarida kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

Kitob taqdimotlari–mazkur tadbirlarda yozuvchilar uyushmasi a‘zolari, shoir va yozuvchilarning yangi nashrdan chiqqan kitoblari bilan professor-o‘qituvchilar hamda malaka oshirishda tahsil olayotgan tinglovchilar tanishtiriladi. So‘nggi marta bunday tadbirda Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filialida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, filologiya fanlari nomzodi Jumagul Suvonova qatnashdi hamda tadbir davomida uning qalamiga mansub “Oq va Qora” deb nomlangan yangi kitobining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

“Kitobxon” tanlovi – malaka oshirishga kelgan tinglovchilar ya‘ni, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar (umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim, professional ta‘lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari, olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari, trenerlari, tarbiyachilari) ishtirokida tizimli ravishda har oyda o‘tkaziladi.

Amaliyotdan ma‘lumki, kitob mutolaasi har qanday shaxsning tarbiyaviy, ta‘limiy, amaliy ko‘nikmalari va kasbiy kompetentligini yanada o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Kitob o‘zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, o‘quvchini insoniyatning ma‘naviyat tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, his-tuyg‘ularini yuksaltiradi. Adabiyotshunos Safo Matjonov ta‘kidlaganidek, “Ilmiy asarlar g‘aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag‘allik va razolatdan xalos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma‘rifatli, baxt-saodatli bo‘lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir” [3, 37-b].

ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020—2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5160827>

Z.Begimqulov, N.Saidmurodova. Axborot-resurs markazi bilan madaniy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi hamkorlik-istiqboldagi ulkan natijalar garovi. Jismoniy tarbiya va sport jurnali – 2024, №1.- B.25-27.

Матжонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар (ўқитувчи учун методик қўл-



ланма.). – Т.: "Ўқитувчи", 1996. -208 б.

Сафарова Д.С. Китобхонлик маданиятини шакллантириш орқали ўқувчи-ёшларни турли ёт ғоялар таъсиридан ҳимоя қилиш. Замонавий таълим журнали – 2017, №6.- Б.37-42.